



Ogohlik davr talabi!

Tinch va osoyishta kunlarimizni qadriga yetib yashashning go'zal saodati barchamizga nasib etsin. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti O'quv teatrida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi xodimi Jasur Mahmudov bilan institut talaba-yoshlari bilan giyohvandlik va narchojinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar yuzasidan suhbat bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbirda inson salomatligi va uni asrash, giyohvandlik va psixotrop moddalarini yetishtirishga qarshi kurashish, noqonuniy yo'llar bilan chegaradan o'tkazishga yo'l qo'ymaslik, doimo ogoh bo'lish yuzasidan qator vazifalar tanishtirib o'tildi.



Institut Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Zulxumor Narqo'ziyeva hamda Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i E'tibor Nazarova boshchiligida mehmonlar bilan talaba-yoshlar o'rtasida mavzu yuzasidan turli savol-javoblar uyushtirildi. Asr vabosiga qarshi kurashish, salomatlikni qadriga yetish bo'yicha yoshlar o'z ko'nikmalarini yanada kengaytirishdi.



0liy ta'lim muassasasida mana shunday dolzarb ahamiyatga ega uchrashuvlar ko'proq bo'lishini tilaymiz!

Dostonbek RAHMATULLAYEV
0'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti matbuot xizmati kotibi